

2023-yil 19-dekabr kuni “Uzbekistan Airways” AJ tijorat maqsadlarida foydalanish uchun navbatdagi Airbus A320neo havo kemasini qabul qildi.

Tuluza shahridagi (Fransiya) Airbus konsernining zavod aerodromida ro‘yxatdan o‘tish raqami UK32026 ega bo‘lgan havo kemasi barcha zarur texnik va parvoz sinovlaridan o‘tdi.



Aviakompaniyaning havo parkida ushbu turdagi havo kemalarining yettinchisi hisoblanadi. Havo kemasi 186 yo‘lovchini tashish uchun mo‘ljallangan va monoklassik tartibda ishlab chiqarilgan. Avialayner BOC Aviation Limited kompaniyasidan uzoq muddatli lizing asosida sotib olingan va dum qismi va dvigatellardagi kompaniya logotipi va Uzbekistan Airways yozuvi bilan korpusi hozircha to‘liq oq rangda.



Toshkent shahar aeroportida aviatsiya an'analariga muvofiq havo kemasi tantanali ravishda suv arkasi bilan kutib olindi.



“Aviakompaniya 2023-yilni yaxshi natijalar bilan yakunlamoqda. O‘tgan yilga nisbatan tashilgan yo‘lovchilar soni ko‘paydi, Myunxen, Anqara, Pxuket, Xabarovskka yangi yo‘nalishlar ochildi. Yangi yil arafasida fransuz ishlab chiqaruvchisining beshta havo kemasini xarid qilish bo‘yicha yillik rejasi muvofiq yana bir Airbus A320neo yetib kelishini kutmoqdamiz. Bu aholining aviatsiya tashuvlariga bo‘lgan talabini qanoatlantirish va yo‘nalish tarmog‘imizni kengaytirish imkonini beradi”, – dedi “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisi Shuhrat Xudayqulov.



Havo kemasini Uzbekistan Airways tajribali uchuvchilari uchuvchi-instruktor Marat Yakupov va nazorat-kapitani Ruslan Ziyadinov boshqaruvida olib kelindi. Tuluza – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha parvoz vaqti 6 soat 40 daqiqani tashkil etdi.



Bugungi kunda Airbus A320neo havo kemalarining turi eng mashhur va o'рта masofali laynerlar orasida eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Avvalgi avlod bilan taqqoslaganda, karbonad angidrid chiqarishi darajasi 50% ga past bo'lib, havo kemasi eng ekologik toza qiladi. Havo kemasida, shuningdek, har ikki daqiqada havoni to'liq yangilaydigan va kema saloni bo'ylab bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydigan konditsioner tizimini takomillashtirdi. Havo kemasining maksimal uchish og'irligi 97 tonna va 6850 kilometrgacha bo'lgan masofada parvoz qila oladi.



[Download PDF](#)